

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

PSIXOLINGVISTIKA VA KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA "MENTAL LEKSIKON" TUSHUNCHASINING TALQINI

Sharifjonova Kamola Tohirjon qizi

Namangan davlat universtiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: kamolabaxodir@gmail.com

Tel: 912053529

ORCID:0009-0005-7613-6013

Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan hisoblangan psixolingvistika va kognitiv tilshunoslik doirasida "mental leksikon" tushunchasining tabiati, tuzilishi va ishlash mexanizmlari tadqiq etiladi. Maqolada so'zlarning xotirada qay tarzda saqlanishi, kognitiv bog'lanishlar tizimi hamda nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonida mental leksikonning roli tahlil qilingan. Shuningdek, an'anaviy lug'atlar va inson miyasidagi virtual lug'at o'rtasidagi tub farqlar yoritib berilgan. Mental leksikonni o'rgangan olimlarning ilmiy ishlari mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: mental leksikon, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, so'z tanish, izlab topish, semantik tarmoq, xotira, til va tafakkur.

INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF "MENTAL LEXICON" IN PSYCHOLINGUISTICS AND COGNITIVE LINGUISTICS

Sharifjonova Kamola Tohirjon qizi

Independent researcher at Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

Annotation. This article studies the nature, structure and mechanisms of operation of the concept of "mental lexicon" within the framework of psycholinguistics and cognitive linguistics, which are considered to be the most relevant areas of modern linguistics. The article analyzes how words are stored in memory, the system of cognitive connections, and the role of the mental lexicon in the process of perception and formation of speech. It also highlights the fundamental differences between traditional dictionaries and the virtual dictionary in the human brain. The essence of the scientific work of scientists who have studied the mental lexicon is highlighted.

Keywords: mental lexicon, psycholinguistics, cognitive linguistics, word recognition, retrieval, semantic network, memory, language, and thinking.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n21>

Insonning murakkab kognitiv qobiliyatlaridan biri gapirish qobiliyatidir. Odamlar biror tilda gapirganda, ko'pincha minglab so'zlardan iborat lug'atdan foydalanayotganini sezmaydi. Inson ongidagi ushbu so'zlarni qidirib topish tizimi mental leksikon deb ataladi.

Mental leksikon – bu inson xotirasida so'zlar, ularning ma'nolari, talaffuzi va grammatik xususiyatlari saqlanadigan murakkab ichki tizim hisoblanadi. Uning dinamik va o'zaro bog'langan tarmoqdan iboratligi oddiy lug'atlardan farqini ko'rsatadi. Ushbu atama XX asrning ikkinchi yarmida kognitiv inqilob davrida yuzaga keldi. Dastlabki qarashlarga ko'ra, tilshunoslikda so'zlar uzoq vaqt davomida faqat statik birliklar sifatida o'rganilgan, ya'ni so'z inson ongidan tashqaridagi, o'zgarmas va qat'iy chegaralangan obyekt sifatida tahlil qilingan. Masalan, "kitob" so'zi statik nuqtayi nazarda qog'ozga yozilgan, lug'atga kiritilgan o'zgarmas

shakl hisoblanadi, uning ma'nosi lug'atda qat'iy belgilangan bo'ladi va kontekstdan tashqarida o'zgarmaydi.

Keying davr 1960-1970-yillarni o'z ichiga oladi. Noam Chomskiy va boshqa tadqiqotchilar tilga inson miyasidagi biologik jarayon sifatida qaray boshlaydi. Buning natijasida, so'zlarning miyada qanday saqlanishi maslasi yuzaga chiqadi.

Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra esa mental leksikonga dinamik neyron tarmoq sifatida qaraladi. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, so'zlar bir-biri bilan ma'no, tovush va grammatik xususiyatlari orqali bog'lanadi. Inson ongida bu xususiyatlarning hammasi bir vaqtda, yaxlit bir metaforik tarmoq sifatida akslanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi:

Mental leksikon atamasi R.C.Oldfield tomonidan "Narsalar, so'zlar va miya"^[1:322] ilmiy maqolasida keltirilgan bo'lib, psixolingvistik tadqiqotlarning muhim qismiga aylandi. Psixolingvistikada mental leksikon odamning so'zlarning xususiyatlari haqidagi ichki bilimi hisoblanadi. Psixolingvistika mental leksikonning real vaqtda nutq ma'lumotlarini kognitiv qayta ishlashda ishtirok etadigan faol mexanizm sifatidagi funksional rolga e'tibor qaratadi. Jean Aitchison "So'zlar ongda" kitobida shunday yozadi: "Kitobiy lug'atlarlardan farqli o'laroq, mental lug'atlar faqat tovush yoki imlo asosida tashkil etilmaydi. Ma'no ham hisobga olinishi kerak, chunki odamlar ko'pincha ma'nolari o'xshash so'zlarni aralashtirib yuborishadi." Lingvokognitiv yondashuv esa leksikaning boshqa kognitiv tizimlar – xotira, idrok, diqqat bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

Mental leksikonning rivojlanishi bo'yicha ko'plab nazariyalar mavjud. Jumladan, Noam Chomskiyning nativist nazariyasiga ko'ra^[2:197], til tug'ma xususiyatga ega. Inson miyasida til qoidalari haqidagi bilimlar tug'ilishidan mavjud bo'ladi. Allan Paivioning ikki tomonlama kodlash ta'limotiga asosan^[3:115], o'rganishda ruhiy tasvirlarning ahamiyati katta. Ma'lumotni o'zlashtirishda vizual tasvir va verbal assotsiatsiyalardan foydalaniladi. Charles S.Piercingning semantik tarmoq nazariyasiga ko'ra^[4:249], bilim tushunchalar orasidagi bog'lanishlar sifatida ifodalanadi. U chastota effekti, priming effekti va qo'shniçilik effekti kabi mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Jorj Millerning mental leksikonning strukturaviy va raqamli modeli mental leksikonni o'rganishda kata yutuqlardan biri bo'ldi. Miller miyadagi so'zlar tasodifiy emas, balki qat'iy iyerarxik va semantik tarmoq asosida joylashishini isbotlab berdi. Uning "The Magical number seven, plus or minus two" konsepsiyasiga ko'ra insonning operativ xotirasi 7 ± 2 ta axborot blokini saqlab tuoladi. Miya ko'p sonli so'zlarni eslab qolish va mental leksikondan tezda toppish uchun ularni kichik semantik guruhlariga ajratadi.^[5:86]

Mental leksikonni o'rgangan o'zbek tadqiqotchilaridan biri Shavkat Safarovdir. Uning "Kognitiv tilshunoslik"^[6:67] fundamental monografiyasi kognitiv tilshunoslik va pragmalingvistika sohasidagi dastlabki va muhim manbaalardan bir hisoblanadi. Olim o'z tadqiqotlarida til, tafakkur, ong munosabatini, inson miyasida axborotning qayta ishlanishi va mental leksikon va makonning shakllanish prinsiplarini ilmiy asoslab bergan.

O'zbek tilshunosligida tizimli va trakibiy yondashuv hamda kognitiv tadqiqotlar bo'yicha yana bir yetakchi olim Baxtiyor Mengliyevdir. Olim o'z shogirdlari bilan birgalikda til birliklarining ongda joylashuvi, leksik tizimning mental tabiati, so'zning lisoniy va kognitiv mohiyatini tadqiq qilmoqda. Qolaversa, mental leksikonni sun'iy intellekt modellariga ko'chirish masalalari ustida ham izlanishlar olib bormoqda.

Tilshunoslikda mental olam va kognitiv semantika yo'nalishida izlanishlar olib borgan olimlardan biri Azamat Ashurovdir. Uning ishlari "O'zbek tilida olamnining lisoniy manzarasi va mental olam" mavzusi atrofida bo'lib, inson ongida so'zlarning konseptual shakllanishi, milliy-madaniy xususiyatlari tahliliga qaratilgan.[7:20]

Mental leksikonda so'zlar shunchaki alohida leksemalar holatida saqlanmaydi. Zamonaviy kognitiv psixolingvistika va neyrolingvistikaning fundamental xulosasiga ko'ra, har bir so'z miyada to'rtta asosiy komponent ya'ni fonologik, morfologik, semantik va sintaktik komponentlarning o'zaro parallel va lahzalik integratsiyasi asosida shakllanadi. Mental leksikondagi har bir lisoniy birlik to'rt o'lchovli integral tizim sifatida saqlanadi. Inson bitta so'z aytmoqchi bo'lganida, miya quyidagi to'rtta komponentni bir lahzada sintez qiladi:

Fonologik komponentda miya so'zni tovushlar yig'indisi sifatida emas, balki fonematik matritsa sifatida saqlaydi. Nutqdagi yanglishishlar ko'pincha ushbu sathdagi tovush yaqinligidan kelib chiqadi. Masalan, eksperiment o'rniga ekspert deyish.

Morfologik komponent o'zbek tili kabi aglyutinativ tillarda o'ta faol komponent hisoblanadi. O'zak va affikslar miyada alohida morfemalar ombori sifatida ham saqlanadi. Bola nutq ontogenezida yangi so'z yaratganda, ushbu morfologik bloklarni lisoniy intuitsiya orqali kombinatsiya qiladi.

Semantik komponent mental leksikonning eng zich qismidir. Ma'nolar keng tushunchalar va tor tushunchalar iyerarxiyasi asosida tizimlashadi.

Sintaktik komponent bu – so'zning gap ichidagi valentligi, ya'ni uning atrofiga qaysi so'zlarni biriktira olish qobiliyati. Miyada so'z o'zining turkumi va qaysi kelshik qo'shimchalarini talab qilishi haqidagi "grammatik pasporti" bilan saqlanadi.

Mental leksikon va an'anaviy lug'atlar turlicha xususiyatlarga ega, biroq vazifaviy tarafdin bir qator umumiyliklari ham mavjud. Axborot ombori vazifasi ya'ni har ikkisi ham so'z boyligini saqlash uchun xizmat qiladi. Toifalash – ikkala tizimda ham so'zlar ma'lum tartibda turkumlanadi. Ko'p qirralilik – ham lug'atda, ham miyada so'zning talaffuzi, yozilishi va ma'nosi haqida axborot mavjud.

Qolaversa, mental leksikon lug'atdagi kabi talaffuz, ma'no, grammatik xususiyatlarni saqlaydi. Har ikkalasida ham so'zlarning ijtimoiy-madaniy foydalanishi, grammatik shakllari va registr saqlanadi.

O'xshashliklari bilan bir qatorda farqlari jihatlari ham mavjud:

- Mental leksikon doimiy yangilanib turadi;
- Unda ko'proq ma'no konnotatsiyalari saqlanadi;
- Faqatgina alifbo tartibida emas, balki ma'no, tovush va shakl bo'yicha bog'lanishlar tarmog'i shaklida tashkil etiladi.

Lug'atda so'z tizimli va me'yoriy shaklda qayd etilsa, mental leksikon shaxsiy idrok, qo'llash tajribasi, hissiy bog'lanishlar va kognitiv aloqalarni aks ettiradi.

Mental leksikon instinktivdir, u ong ostida shakllanadi, tez yangilanib boradi, lug'atlar esa olimlar tomonidan inson omili yordamida yaratiladi, sekin yangilanadi, tildan bir necha yilga orqada qoladi. Mental leksikon foydalanuvchiga tanish so'zlardan iborat bo'ladi, unda jargonlar, norasmiy iboralar, so'zlar bo'ladi, lug'atlar esa texnikaga oid, foydalanuvchiga notanish, eskirgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Mental leksikon har bir til egasi uchun individual, o'ziga xos bo'ladi, lug'atlar esa barcha uchun umumiydir. Mental leksikon maishiy hayot va madaniy tajriba bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Uzoq vaqt davomida an'anaviy tilshunoslikda miyadagi leksikon shunchaki so'zlarning alifbo tartibidagi passiv ro'yxati – “statik lug‘at” yoki “so‘zlar ombori” sifatida tasavvur qilingan. Biroq, zamonaviy psixolingvistik va neyrokognitiv tadqiqotlar bu qarashni inkor etadi. Miyada so‘zlar passiv saqlanmaydi, balki faol tarmoq modeliga muvofiq ishlaydi. Miyaga biror so‘z-rag‘bat kirganda, u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha semantik va assotsiativ tugunlar zanjirsimon tarzda faollashadi. Masalan, “kitob” so‘zi eshitilganda, miyaning chakka bo‘lagida soniyaning mingdan bir ulushida “vaqti”, “maktab”, “varaqlash”, “ilm” kabi yondosh tushunchalar ham qo‘zg‘aladi. Neyropsixologik tajribalarda aniqlanishicha, agar insonga birinchi bo‘lib olma so‘zi ko‘rsatilsa, undan keyin berilgan nok so‘zini xotiradan qayta tiklash tezligi, mashina so‘ziga qaraganda 40-50 millisekundga tezroq reallashadi. Bu miyada so‘zlar alohida emas, balki zich tarmoqli koordinata tizimida, semantik yaqinlik asosida guruhlanganini isbotlaydi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, mental leksikon shunchaki so‘zlar to‘plami emas, balki insonning borliq haqidagi ensiklopedik bilimlari va tajribalari kodlangan kognitiv tizimdir. Har bir so‘z ortida ma‘lum bir madaniy-ijtimoiy bilimlar paketi turadi. Masalan, o‘zbek bolasi mental leksikonidagi “andisha”, “ustoz”, “hashar” kabi konseptual birliklar shunchaki lug‘at ma‘nosi emas, balki o‘zbek xalqining milliy-madaniy dunyo manzarasini aks ettiruvchi murakkab mental konstruksiyalardir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining mental leksikoni rivojlangani sayin, uning dunyo manzarasi konkret-hissiy bosqichdan mavhum-mantiqiy bosqichga o‘tadi. Bu jarayonda leksikon tarmoqlari zichlashadi va konseptual bog‘liqliklar mustahkamlanadi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Oldfield R.C. Things, words and the Brain//Quarterly journal of experimental psychology, Volume 18, Issue 4, pp 340. doi.org/10.1080/14640746608400052
2. Chomsky N. Syntactic Structures. – Den Haag, 1957. – 136 p.; Jackendoff R. Languages of the mind. Cambridge (Mas.): MIT Press, 1995. – 200 p.
3. Аллан Пайвио. Теория двойного кодирования и обучение// М.: 2011. С.110-117
4. Пирс Ч. С. Рассуждение и логика вещей: Лекции для Кембриджских конференций 1898 года / с «Введением» К. Л. Кетнера и Х. Патнема и «Комментариями к лекциям» Х. Патнема; науч. ред. Д. Г. Лахути и В. К. Финна; пер. с англ. Д. Г. Лахути и др. — М.: РГГУ, 2005. — 376 с. — [ISBN 978-5-7281-0597-8](https://doi.org/10.1080/14640746608400052)
5. Miller G. A. "The magical number seven, plus or minus two: Some limits on our capacity for processing information". *Psychological Review*. 63 (2): 1956. 81-97. CiteSeerX 10.1.1.308.8071. doi:10.1037/h0043158. hdl:11858/00-001M-0000-002C-4646-B. PMID 13310704. S2CID 15654531.
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Samarqand: Sangzor, 2006. – 92 b.
7. Ashurov A. O‘zbek tilida olamning lisoniy manzarasi va milliy mental olam: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – B. 24.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, 26-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.